



PUSHKIN VA O'ZBEK ADABIYOTI. TARJIMA TA'SIR VA TALQIN MASALALARI

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti

Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti (o'zbek tili)
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Quvondiqova Sohiba Orif qizi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Aleksandr Pushkin asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi, o'zbek adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri va ularning turli talqinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Pushkin ijodining o'zbek adabiy muhitida tutgan o'rni va uning ijodkorlar ijodiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: Pushkin, o'zbek adabiyoti, tarjima, ta'sir, talqin, she'riyat, Erkin Vohidov, Gafur G'ulom.

ANNOTATION: This article analyzes the translation of Alexander Pushkin's works into Uzbek, their influence on Uzbek literature, and the diversity of interpretations. It also explores the place of Pushkin's creativity in the Uzbek literary environment and its impact on prominent Uzbek writers.

KEYWORDS: Pushkin, Uzbek literature, translation, influence, interpretation, poetry, Erkin Vohidov, Gafur Ghulom.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются переводы произведений Александра Пушкина на узбекский язык, их влияние на узбекскую литературу, а также разнообразие их интерпретаций. Особое внимание уделяется месту творчества Пушкина в узбекской литературной среде и его воздействию на узбекских писателей.

КЛЮЧЕВИЕ СЛОВА: Пушкин, узбекская литература, перевод, влияние, интерпретация, поэзия, Эркин Вохидов, Гафур Гулам.

KIRISH

Rus adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri bo'lgan Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodi nafaqat rus, balki jahon adabiyotining ham muhim bir



bo‘lagi sifatida tan olingen. O‘zbekiston adabiyotida ham Pushkin asarlari tarjimasi, ulardan ilhomlanish va ularni talqin etish yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Mazkur maqolada Pushkin asarlarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi, ularning o‘zbek adiblariga ko‘rsatgan ta’siri va talqinlar xilma-xilligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Aleksand Sergeyevich Pushkin asarlari nafaqat o‘z davrida shuningdek, bugungi kun kitobxonlari uchun ham buyuk adabiy me’ros sifatida sevib o‘qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarjima jarayonining bosqichlari va muhim tarjimalar

Pushkin asarlari o‘zbek tiliga asosan XX asr boshlaridan boshlab tarjima qilina boshlagan. Tarjimalar orqali o‘zbek kitobxonlari “Evgeniy Onegin”, “Bronza chavandoz”, “Kapitan qizi” kabi mashhur asarlar bilan tanishdilar. Erkin Vohidov, G‘afur G‘ulom, Abdulla Oripov kabi taniqli shoirlar Pushkin she’riyatiga murojaat qilib, uni milliy ruhda qayta talqin qildilar.

Pushkin ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri nafaqat tarjimada, balki uslub, obraz va g‘oya darajasida ham seziladi. Jumladan, Erkin Vohidovning lirik she’rlarida Pushkinga xos sof tuyg‘ular, ichki kechinmalar va shaxsiyati bilan kurashayotgan qahramonlar obrazlarini uchratish mumkin. Bu esa Pushkin ijodining o‘zbek she’riyatida qanday darajada chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi.

Ta’sir masalasi: Pushkin va o‘zbek shoiri orasidagi adabiy aloqalar

Pushkin ijodi o‘zbek shoirlari uchun badiiy namunaga aylandi. Jumladan, G‘afur G‘ulom Pushkin ijodiga chuqur nazar bilan yondashib, uning g‘oya va shakl jihatidan yangi yo‘nalishlarini o‘z ijodiga singdira oldi. Erkin Vohidovning Pushkin ruhidagi she’rlari, tarjimalari o‘zbek adabiyotida yangi poetik nafas uyg‘otdi.

Talqinlar xilma-xilligi

Pushkin asarlari faqatgina tarjima qilinmay, balki ularning o‘zbek madaniyatiga mos talqinlari ham shakllandi. “Evgeniy Onegin” qahramonlarining ichki kechinmalari Sharqona ruhda sharhlanib, axloqiy-psixologik jihatdan milliy kontekstda yoritildi. Shuningdek, bolalar adabiyotida Pushkin ertaklarining milliy



ranglar bilan bezalgan variantlari yaratildi bu esa yirik adabiy yutug'lardan biri bo'ldi.

Usmon Nosir iste'dodining yorqin bir qirrasi unung tarjimonlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shoirning Firdavsiy va Shekspir kabi daho san'atkorlar she'riyatidan qilgan tarjimalari, Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon" kabi mashhur dostonlarini mohirona o'zbek tiliga o'girganligi uning ijodiy salohiyati nechog'lik ulkan bo'lganligidan guvohlik berib turadi. Shu m unosabat bilan tarixiy bir faktni keltirish maqsadga muvofiq bo'lar edi: 1937-yil 26-mayda "Literaturnaya gazeta"da Usmon Nosir va Hamid Olimjonlarning "Pushkin na uzbekskom yag'lyke" sarlavhali maqolasi e'lon qilingan. Ushbu maqolada dunyo adabiyotining buyuk siymolari asarları o'zbek tilim izga tarjim a qilinganligi va tilim izning naqadar boyligi va bu tilda jahon adabiyotining eng yuksak nam unalarini tarjim a qilish mumkinligi faxr bilan ta'kidlangan. Zotan, ular 30-yillardayoq o'zlarining mumtoz tarjimalari bilan ham bu haqiqatni to'la isbot qilib berdi.

Shu ma'noda hassos shoirimiz Hamid Olimjonning 1930-yillarda Pushkin asarlarini o'zbek tiliga tarjimasi bilan hog'liq bildirgan fikri bugun ham dolzarbligini yo'qotmagan: "Pushkindan muvaffaqiyatlari qilingan har bir parcha, har bir Katr shoir ijodida muhim bir bosqich, chunki bu adabiy-ijodiy ish - sodda tilmochlik emas. Shuning uchun ham Pushkindan biror asarni yaxshilab tarjima qilish bilan shoir o'z ijodida yangi bir pogona oshadi". Yoki Ma'ruf Hakimning dastlabki hikoyalarni tahlil qilar ekan, ularning tilidagi nuqsonlarni, ayniqsa, ko'p so'zlilarni keskin qoralab, jum ladan, shunday deydi: "Buyuk Pushkin hozir bo'lsa, «Hayot qo'shig'i» degan hikoyalarni to'plam ini chiqargan Ma'ruf Hakimning qulog'idan cho'zib, yuziga bir tarsaki urar va «Pushti gullagan o'riklar o'z gullarini to'kib, dovuchcha tugar edi», «Otning jilovini siltab, tezlashishini qistadi» dema, «O'rik gulini to'kkani edi», «Otni jadallatdi» degin der edi». Ko'rinaradiki, tilda qisqalikka erishish shunchaki bir fazilatgina emas, balki chinakam san'at asari yaratishng, yuksak badiiylikning muhim bir sharti va omilidir.

XULOSA



Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodi o‘zining badiiy yuksakligi, til boyligi va obrazlar tizimi bilan nafaqat rus, balki o‘zbek adabiy muhitida ham alohida o‘rin egallaydi. Uning asarlari XX asr boshidan boshlab o‘zbek tiliga tarjima qilinib, o‘zbek kitobxonasi tomonidan iliq kutib olingan. Pushkin asarlarini tarjima qilgan o‘zbek ijodkorlari – G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar nafaqat tarjimon sifatida, balki o‘zlarining she’riy iste’dodi orqali Pushkin obrazlarini milliy talqinda qayta yaratgan ijodkorlar sifatida e’tirof etiladi.

Pushkin asarlari o‘zbek adabiyotiga faqat tarjima orqali emas, balki badiiy ta’sir jihatidan ham kuchli iz qoldirgan. Uning insonparvarlik,adolat, muhabbat va erkinlik kabi umuminsoniy g‘oyalari o‘zbek shoiri va yozuvchilari ijodida yangi shakl va mazmunda namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, Pushkin asarlarining psixologik tahliliga asoslangan talqinlari o‘zbek adabiyotida yangi poetik yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Bundan tashqari, Pushkin ijodining o‘zbek bolalar adabiyotida ham talqini kuzatiladi. Uning ertaklari milliy did va ruhga moslab, yangi badiiy ishlov bilan bolalar ongiga singdirilgan. Bu esa Pushkin ijodining avlodlararo va madaniyatlararo bog‘lovchi ko‘prik sifatidagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Pushkin va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zaro madaniy boyishning yorqin namunasidir. Pushkin asarlarining tarjimasi va talqini nafaqat o‘zbek adabiyoti rivojiga, balki o‘zbek kitobxonining estetik tafakkuri shakllanishiga ham xizmat qilgan. Kelajakda bu boradagi izlanishlarni davom ettirish, yangi tarjimalarni tahlil qilish va zamonaviy adabiy yondashuvlar bilan boyitish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.Uning asarlari tarjimasi orqali nafaqat rus adabiyotiga, balki jahon madaniyatiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Bugungi kunda ham Pushkin asarlarining o‘zbek adabiy jarayonidagi o‘rni, tarjima san’atidagi o‘rni, shuningdek, ularning talqini yangicha ilmiy yondashuvlarni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Vohidov, Erkin. Ijod haqida, tarjima haqida. — Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
2. Karimov, M. Rus va o‘zbek adabiy aloqalari tarixi. — Toshkent: Fan, 1982.



3. Adabiyotimiz sahifalari. Adabiy-uslubiy qo'llanma. USMON QOSIMOV, LUTFULLA SINDOROV, MA'RIFAT NIZOMOVA. Toshkent«IQTISOD-MOLIYA»2017
4. Qosimov, A. Tarjima san'ati asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2001.